



**Ta'lim tizimini rivojlantirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida  
rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etishning mexanizmlari**

**JDPU p.f.f.d (PhD) Ergasheva Matluba Burxonovna**

**Anotatsiya:** «Rivojlanish» atamasi asosan bolaning aqliy qobiliyatlari uchun ishlatilgan va oxir oqibatda «tadqiqot metodi» atamasi sinonimi sifatida uchragan. Bilim berishning ham o'ziga xos tarzi boshqalarnikidan ajralib turgandagina pedagog layoqati baholanadi. U o'quv jarayoni ishtirokchilarining yoshi, bilim saviyasi, ko'nikma va malakalari, moyilliklarini hisobga olgan holda amal qilinishini taqozo etadi. Aynan shunday dars o'tish yo'lining alohidaligi tufayli bitta mavzu bir yoshdagi o'quvchilarga tamomila farqli tarzda tushuntiriladi va keskin farqli ta'limiy natijaga erishiladi. Shu tufayli, fan o'qituvchisi mashg'ulotdan oldin qaysi sinfga qaysi mavzuni qanday usulda o'tishini, o'rganilajak asarning barcha qirralarini, mavzuning turdosh fanlarga aloqasi kabi jihatlarini hisobga olgan holda dars loyihasini tuzib olishi shart.

**Kalit so'zlar:** muammoli ta'lim, evrestik ta'lim, tadqiqotchilik metodi, IMEN (TRIZ) (ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) metodi, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining yetakchi tamoyillari, rivojlantiruvchi ta'limning ayrim texnologiya va usullari.

Jahonda zamonaviy maktabni isloh qilishda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini tarkib toptirish, o'z-o'zini anglash va baholay olish kompetensiyalarini shakllantirishning amaliy jihatlarini takomillashtirish, rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirishga doir o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirish muammoli-rivojlantiruvchi ta'lim paradigmasi asosida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, tadqiqotchilikka yo'naltirilgan o'quv-bilish faoliyatini amalga oshirish bo'yicha loyixalarni tatbiq etishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi



tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Dars jarayoni doimiy rivojlanish omili bo'lib, bu o'qituvchi bilan birga o'quvchining ham passiv, ham aktiv o'zaro doimiy harakatlari mahsulidir. Dars ana shunday omillar orqali tashkil etilmas ekan, jarayondagi ikki faoliyat olib boruvchilar ham ishtiyoqsiz bo'lib qoladi. Barchamizga ma'lumki, masalan adabiyot darslarida, badiiy material ta'limiy-tarbiyaviy materialga aylanganda, ya'ni fan tili bilan fikrlaganda, o'ziga xos «pedagogik transformatsiya»ga uchragandagina dars berayotgan o'qituvchi o'z kasbiy tayyorgarligi rivojlanishi yo'lida urinayotgan, mustaqil kasb mahoratini oshirayotgan yohud malaka oshirish bilan shug'ullanayotgan bo'ladi.

Bilim berishning ham o'ziga xos tarzi boshqalarnikidan ajralib turgandagina pedagog layoqati baholanadi. U o'quv jarayoni ishtirokchilarining yoshi, bilim saviyasi, ko'nikma va malakalari, moyilliklarini hisobga olgan holda amal qilinishini taqozo etadi. Aynan shunday dars o'tish yo'lining alohidaligi tufayli bitta mavzu bir yoshdagi o'quvchilarga tamomila farqli tarzda tushuntiriladi va keskin farqli ta'limiy natijaga erishiladi. Shu tufayli, fan o'qituvchisi mashg'ulotdan oldin qaysi sinfga qaysi mavzuni qanday usulda o'tishini, o'rganilajak asarning barcha qirralarini, mavzuning turdosh fanlarga aloqasi kabi jihatlarini hisobga olgan holda dars loyihasini tuzib olishi shart.

Rivojlantiruvchi ta'lim o'quv faoliyatini tashkil qilishning asosi hisoblanib uning qo'yidagi asosiy guruhlar mavjud. (1-rasm qarang)






### 1-rasm. Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy guruhlari

**Muammoli ta'lim** - insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda yordam beradi.

**Evristik ta'lim** - «evristika» – grekcha so'z bo'lib, «yeurist» so'zi «izlayman», «topaman», «ochdim» ma'nolarini beradi. Evristik ta'lim juda o'zoq antik zamonlardan beri qo'llanib kelinadi. Birinchi bora ta'lim jarayonida qo'llanilganda – evristik suhbatlar yo'naltirilgan, ketma - ket berilgan savollarga javob jarayonida shakllangan, savollarga javob berishda javoblar o'quvchi tomonidan muammolar yechimiga qatnashish jarayonida rivojlantirilgan.

**Tadqiqotchilik metodi** - talabalarning bilimlarini ijodiy qo'llanilishni talab qiladi. Tadqiqotchilik metodi quyidagilarda qo'llaniladi: kurs ishi, BMI, magistrlik dissertatsiyasi va h.k.

**IMEN (TRIZ) (ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) metodi**- turli xil texnik muammolarni bir xil usullar bilan hal qilinishi mumkin bo'lgan texnik qarama-qarshiliklardir. Mazkur metodi talabalarning texnologik ijodkorligini rivojlantirishga, loyihalar ishlab chiqishga hamda innovatsion ixtirolar yaratishdagi kashfiyotlar ishlab chiqishga ko'maklashadi. (2-rasm qarang)



### 1.2.-rasm. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining yetakchi tamoyillari





Rivojlantiruvchi ta'limning ayrim texnologiya va usullari: (Ilovalarga qarang.) (3-rasm qarang)



**3-rasm. Rivojlantiruvchi ta'limning ayrim texnologiya va usullari**

Rivojlantiruvchi ta'lim ko'zlangan bir vaqtni o'zida, o'quvchining tarbiyaviy, ta'limiy, ruhiy, ma'naviy, jismoniy rivojlantirish hamda uni jaddalik bilan o'zgaruvchan dunyoda hayotga, jamiyatga moslashuvini ta'minlovchi va ko'niktiruvchi ta'lim nazariyasidir. O'z ravnaqini hamda kelajagini o'ylagan har bir rivojlangan davlat jamiyat hayotidagi shaxsga taalluqli bo'lgan barcha ijtimoiy ta'sirlarni insonning rivojlanish, uning o'zligini anglashi va namoyon qila olishi uchun maqsadli ravishda yo'naltira olgan bo'lishi kerak. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalar qo'llanganda, bilim sifat-samaradorligining oshishiga, bilimlarning ko'nikmaga aylanishiga, o'quvchilar qiziqishining ortishiga sabab bo'lmoqda.

Rivojlantiruvchi ta'lim g'oyasi chuqur tarixiy ildizga ega. Uning asosida idrok etish jarayoniga muayyan falsafiy qarashlar yotadi. Masalan, Suqrot bahs-mo'zokaralari (eramizgacha 469-399 yy.) aqlni, fikrni, haqiqatni izlashga undaydigan faoliyat deb aniqlardi. Uning usullari Pifagor maktabi tomonidan foydalanilgan.

Eramizgacha V-asrda Idrok qilish masalalari suhbatdoshlarni faol fikrlash faoliyatiga kirituvchi o'ziga xos bahs usullarini ishlab chiqqan so'fiular e'tibori markazida to'rgan.



Taxminan XI asrdan boshlab o'rta asr universitetlarida o'sha davrda dialektika deb nomlangan va predmetini tushunchalar bilan ishlash tashkil qilgan mantiq muammolariga qiziqish paydo bo'ldi.

XV asrdan boshlab yangi davr – Tiklanish davriga olib kelgan sosial-iqtisodiy va ma'naviy jamiyat hayotida bir qator o'zagarishlar sodir bo'ldi. E'tibor diqqatiga inson, individ qo'yildi, bu ta'limga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Natijada insonning yangi mustaqil o'z-o'zini anglashi va yangi uning ijtimoiy nuqtai nazari o'sib bormoqda: g'urur va mustaqil o'z mavqeini topish, o'z kuchi va qobiliyatini anglash insonning o'ziga xos xislatlariga aylandi.

Idrok qilish masalalari suhbatdoshlarni faol fikrlash faoliyatiga kirituvchi o'ziga xos bahs usullarini ishlab chiqqan so'fiular e'tibori markazida to'rgan. Taxminan XI asrdan boshlab o'rta asr universitetlarida o'sha davrda dialektika deb nomlangan va predmetini tushunchalar bilan ishlash tashkil qilgan mantiq muammolariga qiziqish paydo bo'ldi.

Rivojlantiruvchi ta'lim haqidagi masala ilk bor buyuk Shveytsariyalik pedagog I.G.Pestalotssi[28] XVII - XVIII asr boshida o'z pedagogik qarashlari tizimini «elementar ta'lim nazariyasi» deb atagan (ko'rincha birgina «metod» so'zi bilan). O'qitish, qat'iy ishonishiga ko'ra, rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo'lishi va «butun insonni ishlab chiqishi» kerak, ya'ni nafaqat aqlga ta'sir ko'rsatishi, balki bola hissiyoti, irodasi, fe'liga muvoffiq ta'sir ko'rsatishi, uni hayot uchun zaruriy bo'lgan malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishi kerak. Malakalardan o'zilgan holda idrok etish, Pestalotssiga ko'ra, faqat sirtidan ko'rinish. Pestalotssi «inson nasli uchun qandaydir ayrim bilimlar, ko'nikmalarning egallanishi emas, balki inson tabiati kuchlarini rivojlantirish barcha toifa bolalarini tarbiyalash mohiyatini tashkil qiladi» deb qat'iy ishonadi.

Pestalotssi bilan ishlab chiqilgan maktabda rivojlantiruvchi ta'lim haqidagi g'oyasi keyinchalik ilg'or pedagogik fikrlarni qamrab oldi. Auniqsa rivojlantiruvchi ta'lim g'oyasining yorqin davom etishi ko'zga ko'ringan nemis pedagoglari A. Disterveg ishlarida namoyon bo'ldi.

A.Disterveg bu g'oyani rivojlantirib, yozgan edi: «Rivojlantirish va ta'lim berish hech bir insonga berilishi yoki xabar qilinishi mumkin emas. Har qanday inson bunga o'z faaoliyati orqali erishishi kerak...». Bundan keyin esa: «Inson tomonidan o'z mustaqilligi



orqali erishilmagan narsa – uniki emasdir». Ular bilan yaratilgan rivojlantiruvchi ta'lim didaktikasi asosiy vazifasi bo'lib «haqiqatni o'zlashtirish va izlash»da o'quvchi bilish qobiliyatlarini qo'zg'atish hisoblanadi.

K.D.Ushinskiy bir necha bor I.G.Pestalotssining «rivojlantiruvchi metodi» haqida fikr bildirgan va uning asosiy pedagogik g'oyasini insoniyatni oldinga yetaklovchi buyuk kashfiyotlardan biri sifatida baholagan. Maktabning maqsadi, I.G.Pestalotssiga ko'ra, «bolalar boshiga muayyan bilimlar miqdorini kiritish va ularga o'qish va yozish texnik ko'nikmasi haqida xabar berishdan emas, balki maktab mashg'uloti orqali bolalar qobiliyatini rivojlantrishdan iborat» deb yozgan edi. Bu g'oya hozirda qanchalik oddiy bo'lmasin, o'sha vaqtda u Amerikaning kashf qilinganiga ko'ra insoniyatga ko'proq foyda keltiradigan kashfiyot bo'lgan».

K.D.Ushinskiy bu nazariya asosida o'quvchilarning aqliy kuchlarini rivojlantiradigan didaktik tizimni yaratadi va ularning bilish mustaqilligini rivojlantirish g'oyasi haqida fikr bildiradi: o'quvchilarga nafaqat u yoki bu bilimlarni, balki mustaqil, o'qituvchisiz yangi bilimlarni egallash qobiliyatini berish lozim, bu muhim maktab ta'limi vazifalaridan birini tashkil qiladi. P.F.Kapterev, K.D.Ushinskiy g'oyasiga tayanib, o'qituvchilarni o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va ularni bilish mustaqilligini shakllantirishga chorlaydi.

XIX asr ikkinchi yarmida o'qitish metodlarini o'quvchilar fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi «evristik metod»ni kimyoni o'qitishga kiritgan ingliz pedagogi Armstrong tanqid qilib chiqdi. Bu metod vazifasini o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ilmiy metodga o'rgatishda ko'rgan.

Amstrongdan qat'iy nazar rus tabiiyshunos uslubiyotchisi A.Y.Gerd rivojlantiruvchi ta'limning muhim qoidalarini ta'riflab berdi. «Barcha real bilimlar, uning yozishicha, asta-sekin kengayadigan xulosa va umumlashtirishlar yordamida kuzatish, solishtirish va tajribalar orqali insoniyat tomonidan egallangan. Maqolalarni o'qish emas, balki faqatgina shunday yo'l bilan bu bilimlar bolalarga berilishi mumkin. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida ko'zatiladigan dalil va hodisalarni kuzatishi, solishtirishi, baholashi, muhokama qilishi, xulosa qilishi va umumlashtirishi va ularni oddiy, tushunarli tajribalar bilan tekshirishi kerak».

Bularning barchasiga qaramay, ta'kidlash lozimki, ko'rib chiqiladigan davrda bir butun pedagogik ta'lim tizimi sifatida rivojlantiruvchi ta'lim masalalari bo'yicha umuman tadqiqotlar bo'lmagan. «Rivojlanish» atamasi asosan bolaning aqliy qobiliyatlari uchun ishlatilgan va oxir oqibatda «tadqiqot metodi» atamasi sinonimi sifatida uchragan. Biroq rivojlantiruvchi ta'lim belgilari g'oyalar ko'rinishida shunchalik kuchli bo'lganki, 1918 yilda Davlat hay'ati yig'ilishida «aqliy qobiliyatlarni bolalik yoshida rivojlantirish»





zaruriyati haqida fikr bildirilgan, 30-yillarda esa «Rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalari shunchalik shakllana bordiki, o'qitish va rivojlantirish munosabati ta'lim tizimida eng markaziy va asosiy nazariy masalaga aylandi».

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.
3. Гущев В.В. Инновационные идеи в современном образовании. // Школьные технологии.- 1997.- № 1.- с. 3-10.
4. Glasser U. «The quality school teacher» (1990) - ISBN 0-06-090422
5. Песталоцци И.Г. Избранные педагогические сочинения в двух томах / Под ред. В.А. Ротенберг, В.М. Кларина. - М.: Педагогика, 1981. - т.1. - С. 7-46.-С. 61-212.
6. Дистервег.А. Избранные педагогические сочинения.- М.1995 г.-С. 264-265.